

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Aminboyeva Rajabgul Otabek qizi

Qoraqalpog'iston Respublikasi

To'rtko'l tumani 60-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy psixologga qo'yiladigan kasbiy, shaxsiy va metodik talablar yoritiladi. Shuningdek, psixologning bolalar rivojlanishidagi o'rni, u bilan ishlashning samarali usullari va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixolog, kichik maktab yoshi, rivojlanish, diagnostika, muloqot, kompetensiya, tarbiya

KIRISH

Kichik maktab yoshi (odatda 6–10 yosh) bolalar hayotida muhim bosqich bo'lib, bu davrda ularning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi faol kechadi. Shu sababli bu yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashda psixologdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va maxsus yondashuv talab etiladi.

Zamonaviy psixolog, avvalo, bolalar psixologiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. U yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini, diqqat, xotira, tafakkur va emotsional jarayonlarning shakllanishini yaxshi bilishi zarur.

Psixologning muhim talablaridan biri — psixologik diagnostika ko'nikmalariga ega bo'lishdir. U turli testlar, kuzatish va suhbatlar orqali o'quvchilarning psixologik holatini aniqlay olishi kerak.

Muloqot qobiliyati ham psixolog uchun asosiy talabdir. Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda samimiylik, mehribonlik va sabr-toqat muhim ahamiyatga ega. Psixolog bola bilan ishonchli aloqa o'rnatishini lozim.

Zamonaviy psixolog individual yondashuvni qoʻllay olishi kerak. Har bir bola oʻziga xos boʻlgani sababli, ularga bir xil usul bilan yondashish samarasiz boʻlishi mumkin.

Shuningdek, psixolog psixokorreksion va rivojlantiruvchi mashgʻulotlarni tashkil eta olishi zarur. Oʻyinlar, treninglar va interaktiv usullar orqali bolalarda ijobiy sifatlar shakllantiriladi.

Psixologdan ota-onalar va oʻqituvchilar bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Ular bilan maslahatlashuvlar oʻtkazib, bolalar rivojlanishi boʻyicha tavsiyalar berishi kerak.

Zamonaviy psixolog axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilishi ham muhim. Onlayn testlar, interaktiv platformalar va raqamli vositalar ish samaradorligini oshiradi.

Psixologning shaxsiy sifatlari ham muhim oʻrin tutadi. U empatiya, sabr-toqat, adolat, masʼuliyat va professional etikaga amal qilishi kerak.

Shuningdek, psixolog doimiy ravishda oʻz ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi zarur. Zamonaviy psixologiya yangilanib borayotgan soha boʻlgani uchun, yangiliklardan xabardor boʻlish muhimdir.

Bugungi kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, isteʼdodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan taʼlim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib boʻlmaydi. Maʼlumki, har qanday insonning oʻsish, rivojlanish va shakllanish davrlari taʼlim-tarbiya faoliyatisiz amalga oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va taʼlim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bogʻliq faoliyatdir. Taʼlim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi boʻlib, taʼlim tizimidagi oʻzgarishlar, oʻquv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish taʼlimni mukammallashtirishga qaratilgandir. Taʼlim jarayonida oʻquvchi faollik koʻrsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar koʻzlangan natijani bermaydi. Taʼlim jarayonida oʻquvchilarni mustaqil ishlashga oʻrgatish ham muhimdir. Taʼlim jarayonida ular, maktab oʻquvchilariga qoʻyiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni oʻzlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun koʻnikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining asosiy faoliyati oʻqish hisoblanadi.

O`quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgach bola o`z atrofida o`zlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o`tadi. U o`zining hayotini tubdan o`zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o`quv faoliyati talablariga bo`ysunish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a`zolarining bola o`quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o`zgarganligini to`la his etishga o`ziga nisbatan munosabatning o`zgarishiga asos bo`ladi. Ta`lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko`lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o`rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bola maktabga qadam qo`yishi bilanoq unga bo`lgan munosabat va talablar orqali o`ziga xos bo`lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta`lim tizimiga ulkam ma`suliyat hissini yuklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bolib yetishishi hozirgi kunning muhim vazifadir. Ma`lumki o`quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo`lga qo`yish uchun avvallo ularning harakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o`quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o`zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakkama- yakkamuniosabatga kirishish mumkin emas. Boshlang`ich sinf o`quvchilar ishonuvchan tashqi taasurotlarga beriluvchan bo`ladilar.

Buyuk alomallarimiz ta`kidlaganidek, kishining fe`l atvori hammadan ko`ra ko`proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo`lgan sifatlar mustahkam o`rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma`suliyat boshlang`ich sinf o`qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o`qituvchining har bir gapi har bir hatti- harakati ta`sir ko`rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o`quvchilar o`qituvchilarga qattiq

ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshiriqlarni bekam-u ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'qituvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab-quvvatlash ularni atrofdagi kishilar yordam berishga undashadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini burch hissini tushuntirish, ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi shu ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologil xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma'lumki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlash o'quvchilarga yakkama-yakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir. Mana shunday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davridagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish. O'qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliqi pedagogik odobi o'z hatti harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvoffaqiyatlarning garovidir. Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, xususan bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarni ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. O'qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o'quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo'ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan xilma –xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo'la boshlaydi.

O'quvchilarni qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Bolalarni ijobiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag'batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarini payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o'ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o'qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir. O'quvchi uchun o'qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o'qituvchi o'quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo'lishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo'lgan qiziqishlar tez tarkib topadi.

Bizga ma'lumki, maktabga o'qish jarayoni 7 yoshdan etib belgilangan . Chunki, bu paytda bola miyasi yaxshigina rivojlangan, u atrofdagi signallarni, yangiliklarni , o'zgarishlarni yaxshi qabul qiladigan yoshda bo'ladi. Shu o'rinda bolani maktabga qabul qilish jarayoni haqida qisqa fikr bildiradigan bo'lsak, bu paytda bolaning aqliy, jismoniy va psixik jarayonlari tekshiriladi. Ulardan ijobiy natija olingandagina, bola maktabga qabul qilinadi. Lekin, ko'pchilik ota- onalarning xohish-istaklari tufayli bola maktabga muddatidan oldin boradi. Buning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari mavjud. To'g'ri, ilmga intilishni qanchalik oldin boshlasa, shunchalik yaxshi , albatta. Ammo, ba'zida bu yoshdagi bolalarning psixikasida ruhiy zo'riqish ham kuzatiladi. Buning natijasida bolada horg'inlikni, darslarga yaxshi qatnasha olmasligini va uyga vazifalariga ulgura olmasligini ko'rishimiz mumkin.

Darhaqiqat, har bir bolaning o'sib- ulg'ayish davri turlicha kechadi. Shuning uchun, bolani maktabga psixologik tomonlama ham tayyorlash zarur. Chunki, bog'chada

do'stlari, o'yinchoqlar orasida erkin o'sgan bolani turli qonun- qoidalarga , majburiyatlarga o'rganishi oson kechmaydi, albatta. Bolaning maktabga borish vaqti yaqinlashgani sari, uni jismonan, aqlan va mativatsion tomonlama yetilganligiga ishonch hosil qilish zarur. 6-7 yoshli bolaning og'irligi oyiga 150-200 grammgacha bo'yi esa 0.5 santimetr gacha o'sa boshlaydi. Bu davrda bolaning ko'rish, eshitish va umurtqa pag'onasini to'g'ri tuta olishiga e'tibor berish lozim.

Katta bog'cha yoshidagi bolalar ko'pincha , maktabga o'qish uchun o'zlarida ehtiyoj sezishadi, ammo bu ehtiyoj turlicha namoyon bo'ladi. "Menga chiroyli forma, daftar, ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda do'stlarim ko'p bo'ladi, ular bilan o'ynayman, maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni ota-onalar ko'pincha bolalarda maktabga nisbatan qiziqishni orttirish uchun ishlatishadi, bu kabi maktabning tashqi ramzlari shubhasiz bolani qiziqishini orttiradi, biroq, bu uning maktabda yaxshi o'qishi uchun asos bo'la olmaydi. Motivatsion tayyorlashga esa "Men otamga o'xshashim uchun yaxshi o'qishim kerak", "Maktabda eng a'lochi o'quvchi bo'lishim kerak" kabilar misol bo'ladi. Biz ko'p hollarda bolaning o'z fikrini erkin bayon eta olmasligi, o'z fikri to'g'ri yoki noto'g'riligi borasida uzoq muddat o'ylashi , kattaroq bo'lgan jamoa oldida o'zining fikrini tushuntira olmasligini kuzatamiz. Buning asl sababi shundaki, bola kichkinaligidayoq tazyiqlar orasida o'sgan Unga o'z fikrini ifoda etish uchun shart – sharoit yoki vaqt ajratilmagan bo'ladi. Biz ko'picha bolani tarbiyalash deb uni kam gapishishga , o'z fikrini bayon eta olmaslikka o'rgatib qo'yamiz. Shu hollarning oldini olish uchun kichik yoshdagi bolani " bu nima?", "bu qanday ishlaydi?" , "bu nega bunchalik katta?" kabi oddiy savollariga to'liq javob berishimiz va uni eshitish uchun yetarli vaqt ajrata olishimiz lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda zamonaviy psixolog yuqori kasbiy bilim, kuchli muloqot qobiliyati va zamonaviy yondashuvlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa bolalarning sog'lom va barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nishonova Z. Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi” T.: 2006 y
2. Nishonova Z.T. Do`stmuxammedova Sh.A. To`lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya.
Toshkent 2011-y
3. Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
4. Ziyonet